

## INKLYUZIV TA'LIMNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

**Salimova Marjona Salomovna***Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya: (Amaliy psixologiya)  
yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim rivojlantirishi tarixi, uning ahamiyati, nogironligi bor bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuzivlikni o'rni va oliy o'quv yurti talabalari o'rtasida olib borilgan kichik tadqiqot ishi natijalari tahlili yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Imkoniyati cheklangan bolalar, segregatsiya, integratsiya, inklyuziya, ijtimoiylashuv, optimizm, pessimizm.

Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim tarbiyasida teng huquqlilik masalasi bugungi kunda ham dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Turli xil sabablarga ko'ra ko'plab nogironligi bor bolalar ta'lim jarayonidan chetda, yoki uy sharoitida alohida ta'lim olib kelmoqda.

Shu o'rinda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim rivojlanishining tarixiy jihatiga nazar tashlasak:

1. Segregatsiya (lot. Segregacio — ajratish) — biron irq yoki etnik guruhni chegaralangan hududga majburlab yoki ixtiyoriy yo'l bilan ko'chirish yohud alohida maktablar, transport vositalari, xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil etish yoki bo'lmasa, boshqa diskriminatsiya choralari orqali ajratib qo'yish).

Boshqachasiga "Tibbiy model" deyish ham mumkin. 20-asrning 60-yillari boshidan o'rtalarigacha nogironligi bor insonlarni izolyatsiyasiga hissa qo'shdi. Nogironligi bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab internatlarda ta'lim berish. Ushbu "Tibbiy model"ning tamoyili g'amxo'rlik qilish edi. Maxsus moddiy texnik vositalar, maxsus o'qituvchilarning mavjudligi, bolarning imkoniyatlaridan kelib chiqib tuzilgan maxsus o'quv dasturlari va tibbiy yordam ko'rsatish tizimi.

Ammo to'laqonli hayotga tayyor emaslik, ijtimoiylashuvning sustligi bu tizimning kamchiliklari borligini ko'rsatib berdi. Oiladan, tengdoshlaridan izolyatsiya ijtimoiy adaptatsiyaning pastligiga olib keldi.

2. Integratsiya (lot. Integratio — tiklash, to'ldirish) "Normalizatsiya modeli". O'tgan asrning 60-yillarining o'rtalaridan 80-yillarning o'rtalariga qadar rivojlanib bordi. Bu model tamoyili nogironlarni jamiyat hayotiga integratsiyalash, nogironligi bor bolalar uchun umumta'lim maktablarining maxsus sinfi.

Imkoniyati cheklangan bolani u yashayotgan jamiyatda qabul qilingan madaniy me'yorlar ruhida tarbiyalash g'oyasi. Ushbu yondashuv prinsipi—alohida ehtiyojli bola—bu turli xil faoliyat turlarini o'zlashtirish qobiliyatiga ega rivojlanayotgan shaxs,

jamiyat bolani normal sharoitga imkon qadar yaqin yashash sharoitlari bilan ta'minlashi kerak. Buning natijasida xalqaro konsepsiyalarni imzolash orqali nogironlarga nisbatan davlat siyosatining o'zgarishi, qonunchilik bazasida nogironlarning javobgarlik va mustaqil hayot huquqi nuqtai nazaridan pozitsiyasini o'zgartirish yuzaga keldi. Integratsiyalashning kamchiligi sifatida, jamiyatda mavjud bo'lgan individual farqlarning keng doirasini hisobga olmagani keltirish mumkin.

3. Inklyuziya (fransuzcha "inclusif" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'z ichiga oladi" deb tarjima qilinadi) 80-yillarning o'rtalaridan boshlab hozirgi kunga qadar. Nogironligi bor bolalarni boshqa bolalar bilan birga umumta'lim maktablarida ta'lim olishlarini tashkil etish.

Inklyuziv ta'lim madaniyati.«Salamanka deklaratsiyasi»ga muvofiq, har bir o'quvchining tafovut, xususiyatlarini qo'llab-quvvatlovchi va ma'qullovchi islohot sifatida qarashadi. Uning maqsadi, jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyat va qobiliyatidagi tafovutlar oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy segregatsiyaga yo'l qo'ymaslikdir.[1.3.195:b]

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojni biz jamiyat va imkoniyati cheklangan bolalar uchun bir qator foydali jihatlari borligida ko'rishimiz mumkin:

- Inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalarga hamisha o'z oilasi va yaqinlari yonida bo'lishga imkon beradi;

- Inklyuziv ta'lim natijasida ta'lim sifatini yaxshilashga erishish mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim maktablarida ta'lim olishlari natijasida o'qitishning yangi usullari joriy etila boshlaydi;

- Inklyuziv ta'lim kamsitishlarning oldini olishga yordam beradi. Imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalarning umumta'lim maktablarida birga tahsil olishlari natijasida o'zaro moslashuv yuzaga keladi;

- Inklyuziv ta'lim sabab jamiyatda nogironligi bor insonlarga nisbatan bo'lgan noto'g'ri qarash o'zgaradi. O'zaro hurmat va tenglik munosabatlari shakllanadi.

Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan shaxslarni sport, mehnat faoliyati, kasb-hunar, oliy ta'lim bilan qamrab olish ham ularda kelajakka bo'lgan ishonchni, ruhiy barkamollikni taminlashga yordam beradi. Buning uchun ularni shu jarayonga moslashtirib, yo'naltirib, ijobiy motivatsiyani shakllantirib borish lozim. Bunga misol qilib, shu kunlarda oliy ta'limda o'qiydigan talaba qizlar o'rtasida tor doirada, "Optimizim" ni aniqlash uchun o'tkazilgan psixologik metodika natijalarini keltirishimiz mumkin.

Bunga ko'ra imkoniyati cheklangan talaba qizlarda optimizm darajasi 67,5% ni ko'rsatmoqda. Vaholan-ki sog'lom bo'lgan talaba qizlarda -bu ko'rsatgich 63,15% ni ko'rsatmoqda. Ya'ni oliy ta'lim bilan qamrab olingan, hayotda maqsadi bor jismoniy imkoniyati cheklangan qizlarda optimizm darajasi sog'lom qizlarga qaraganda baland. (Shu o'rinda og'riqli bir masala: talaba qizlarda umumiy o'rtacha natijalar tahlil qilinganda "To'liq optimizm" darajasi past).

Shu o'rinda ushbu tadqiqot natijalariga bir oz to'xtalib o'tadigan bo'lsak:

Tadqiqotda ishtirokchilarning yosh chegarasi 18 yoshdan 33 yoshgacha bo'lgan jismoniy imkoniyati cheklangan va sog'ligida muammo bo'lmagan talaba qizlarni qamrab olindi. Shundan:

- 23,3% ni 18-19 yosh;
- 30% ni 20 yoshdan 22 yoshgacha;
- 13,3% ni 22 dan-24 yoshgacha;
- 20% ni 24-26 yoshgacha;
- 3,3% ni 26 yoshdan 30 yoshgacha;
- 6,6% ni 33 yoshgacha bo'lgan talaba qizlar qamrab oldi.

Ishtirokchilarning maksimal ballni to'plash darajasiga ko'ra ko'rsatgichi quyidagicha:

Sinaluvchilarning

- 3,3% maksimal ballning 50% ni to'pladi;
- 30% ishtirokchi 60% dan yuqori;
- 26,6% sinaluvchi 70% yuqori;
- Ishtirok etganlarning eng ko'p qismi, ya'ni 33,3%i 80% dan yuqori ball to'plagan;

- Eng yuqori ballni, ya'ni 90% dan yuqori natijani 6,6% ishtirokchi ko'psatdi.

Umumiy natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak ishtirokchilarning:

- 13,3% "To'liq optimist";
- 80% "Pessimistdan ko'ra Optimist";
- 3,3% "Optimistdan ko'ra Pessimist";
- 3,3% "To'liq Pessimist" ekanligi ko'rildi.

Shuningdek, umumiy natijalar ikkiga (imkoniyati cheklangan va cheklanmagan talaba qizlar) bo'lib tahlil qilinganda yuqorida aytib o'tganimizdek–

- Imkoniyati cheklangan talaba qizlarda Optimizm darajasi 67,5% ni;
- So'g'ligida muammo bo'lmagan talaba qizlarda 63,15% ni ko'rsatdi.

Xulosa qilib yuqorida aytib o'tilgan fikrlarning davomi o'laroq shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ijtimoiylashuv va jamiyatga yo'naluv imkoniyati cheklangan shaxslar hayot tarzining optimallasuviga sabab bo'lmoqda.

To'g'ri tor doirada o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan xulosa yasashga erta, ammo bu natijalar tahlili ijtimoiylashgan imkoniyati cheklanganlarda faol hayot darajasi oshishini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot keng miqyosda o'tkazilib natijadan olingan xulosalar hayotga tadbiiq qilinishi shart. Shu bilan birga imkoniyati cheklangan insonlar uchun mos kasbni ularning jismoniy holatidan kelib chiqib moslashtirilishi va bu ijtimoiy so'rovnomalar orqali aniqlab olinishi kerak bo'ladi.

Eng muhimi esa jamiyatning faol a'zolari (sog'lom shaxslar) ular bilan bir qatorda shu jamiyatda ulardan kam salohiyatga ega bo'lmagan o'zga bir jamiyat kishilari ham yashayotganligini unutmang! Qarashlarni o'zgartiradigan vaqt keldi!...

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi F-5006 son farmoishi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PF-5847 son. 08.10.2019.

3. B.X.Xodjaev "Umumiy pedagogika" pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik. Toshkent 2017 yil.

4. Maqsudova Nodira Alijonovna "Imkoniyati cheklangan o'smirlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslari". Magist darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2016-yil.

5. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi nizomi. 2005-yil.